

Atayeva Maloxat Isakovna
 Abu Rayhon Beruniy nomidagi
 Urganch davlat universiteti
 boshlang'ich ta'lim metodikasi
 kafedrasida katta o'qituvchisi

PEDAGOGIK AMALIYOTDA ILG'OR G'OYA VA TEXNOLOGIYALARNI OMMALASHTIRISHNING O'ZIGA XOS MEKANIZMLARI

Annotatsiya. Ta'lim tizimida navatorlikni, innovatsion faoliyatni kuchaytirish, o'qituvchilarning tajriba almashinuvini mukammal modelini yo'lga qo'yish nafaqat ta'limni sifatini yaxshilaydi, balki uning iqtisodiy tejamkorligini ham oshiradi. Shu nuqtai nazardan maqolada keltirilgan innovatsiyalarning ma'lum mezonlarga ko'ra baholanishi, o'qituvchilarning bilim almashishga bo'lgan motivatsiyasini rag'batlantiruvchi boshqaruv mexanizmlarini va o'qituvchilarning bilim almashinuvini bo'yicha shakllari ham ko'rsatib o'tilgan.

Ushbu maqolada pedagoglarni ilg'or texnologiyalarga tayangan tajribalarini ommalashtirishning bir qancha yo'llari tahliliy o'rganilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, ommalashtirish, pedagogik innovatsiya, kasbiy mahorat, bilim almashish muammolari, innovatsion faoliyat, ilg'or pedagog, ijodkor o'qituvchi, kreativ qobiliyat.

КОНКРЕТНЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПОПУЛЯРИЗАЦИИ ПЕРЕДОВЫХ ИДЕЙ И ТЕХНОЛОГИЙ В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПРАКТИКЕ

Аннотация. Усиление инновационной и инновационной деятельности в системе образования, создание передовой модели обмена педагогическим опытом позволит не только улучшить качество образования, но и повысить его экономическую эффективность. В этом контексте в статье также представлена оценка инноваций по определенным критериям, механизмы управления, стимулирующие мотивацию учителей к обмену знаниями, формы обмена знаниями учителей.

В статье анализируются несколько способов популяризации опыта педагогов на основе передовых технологий.

Ключевые слова: педагогическая технология, популяризация, педагогическая инновация, профессиональные навыки, проблемы обмена знаниями, инновационная деятельность, передовой педагог, творческий педагог, творческие способности

SPECIFIC MECHANISMS FOR POPULARIZING ADVANCED IDEAS AND TECHNOLOGIES IN PEDAGOGICAL PRACTICE

Annotation. Strengthening innovation and innovative activities in the education system, establishing an excellent model of teacher experience exchange will not only improve the quality of education, but also increase its economic efficiency. In this regard, the article presents the evaluation of innovations according to certain criteria, management mechanisms that stimulate teachers' motivation to share knowledge, and forms of teacher knowledge exchange.

This article analyzes several ways to popularize the experience of teachers based on advanced technologies.

Keywords: pedagogical technology, popularization, pedagogical innovation, professional skills, knowledge exchange problems, innovative activities, advanced pedagogue, creative teacher, creative ability.

Ijtimoiy jamiyat rivojlanayotgan davrda "navator", "innovator" so'zlari gazeta-jurtallarda, ilmiy nashrlarda tez-tez uchrab turmoqda. Ta'lim sohasida innovator o'qituvchi bo'lmasa, u ta'limdagi ilgari surilayotgan islohotlar, ma'lum ixtirolarni hayotga tadbiiq qilishi qiyin bo'ladi. Boshqacha aytganda o'quvchi talabi darajasida bo'la olmaydi. Albatta bu jarayon tushunchalar va bilimlarni chuqurlashtirishga olib keladigan doimiy takomillashib boruvchi va uzluksiz rivojlanib boruvchi jarayon hisoblanadi. Bilim,

ta'lim, tarbiya sifati va samaradorligini oshirishning usul va shakllaridan bo'lmish ilg'or tajribalar va ularni ommalashtirish yangi innovatsion ta'limning o'ziga xos shakllarini taqazo qiladi.

O'qituvchining pedagogik faoliyati an'anaviy hamda innovatsion xarakterga ega bo'lishi mumkin. Shuni unutmash kerakki, ilg'or pedagogik tajribalar alohida samaradorlikka ega. Shu bilan bir qatorda, pedagogik tajribalar yangilik kasb etib, ta'lim amaliyoti va didaktika nazariyasini boyitishga hissa qo'shadi. Ilg'or tajribalarni yaratish va hamkasblar orasida ommalashtirishda o'qituvchining mavqei alohida o'rin tutadi. Shu sababli, muayyan tajribaning asosiy holatlari va ko'rsatkichlarini amaliyotga joriy etish hamda ommalashtirishda subyektiv omillarni alohida hisobga olish kerak. Shuningdek, uning variantlarini baholash va pedagogik jamoa orasida yoyish nihoyatda zarurdir.

Asosiy qism. Pedagogikada "innovatsiya", "innovatsion faoliyat", "innovatsion pedagogika", "ta'limda innovatsion jarayonlarni boshqarish" kabi tushunchalar XX asrning 60-yillarida dastlab AQSh va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida "ta'lim texnologiyasi" tushunchasi e'tirof etilgan davrda paydo bo'lgan. Bu tushunchalarning yuzaga kelishi va innovatsion ta'lim nazariyasining yaratilishi to'g'risidagi manbalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mazkur tushunchalar ta'lim tizimiga yangiliklarni, pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali talabalarining kreativ qobiliyatlarini shakllantirish, ta'lim samaradorligini oshirish, shaxs ijtimoiylashuvini ta'minlash, bu borada muayyan muvaffaqiyatlarga erishish uchun ta'lim jarayonida o'quvchi-talabaga do'stona munosabatlarni shakllantirishga urinish natijasida yuzaga kelgan.

O'qituvchi faoliyatining innovatsiyalarga yo'naltirilganligi psixologik-pedagogik tadqiqotlar natijalarini ta'lim amaliyotiga tatbiq etish imkonini beradi. Pedagogik tadqiqotlar natijasini ommalashtirish uchun amaliyotchilarni olingan natijalar bilan maxsus tanishtirish talab etiladi.

Ilg'or pedagoglar yangi pedagogik g'oyalar va texnologiyalarning ommalashtiruvchisi va targ'ibotchisidir. Alohida o'qituvchi yoki ta'lim muassasasi tajribasini o'rganish va ommalashtirish oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari hamda umumta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan ilg'or pedagoglar tomonidan amalga oshiriladi. Bunday ijodiy guruhlarni tashkil etish zaruriyati bir qator omillar bilan asoslanadi:

- Pedagogik yangilik muallifi uning istiqboli haqida zarur ma'lumotlar va aniq asosli fikr bera olmaydi.

- Ilg'or g'oyalarni ommalashtirish pedagogdan qo'shimcha vaqt, kuch-g'ayrat va mehnat talab qiladi.

- Muayyan yangilik har doim ham uning muallifi tomonidan ilmiy-metodik jihatdan yetarli darajada asoslanmaydi.

- Mualliflar, o'zlarining innovatsiyalari va ularni amaliyotga tatbiq etish yo'llarini bayon etishda, ko'pincha o'zlari yoki hamkasblarining shaxsiy xususiyatlari bilan bog'liq to'siq va cheklovlarga duch keladilar.

- Ijodiy guruh, nafaqat pedagogik innovatsiyalarni targ'ib qilish va ommalashtirish, balki ular asosida o'qituvchilar faoliyatiga tuzatishlar kiritish, bo'lajak pedagoglarning kasbiy bilim va mahoratini boyitish vazifasini ham bajaradi.

Ijodiy guruh a'zolari pedagogik monitoring o'tkazish, innovatsiyalarni tizimli tanlash, yangi g'oyalar va texnologiyalarni baholash, oliy ta'lim muassasalari ish tajribasini boyitish kabi vazifalarni ham o'z zimmasiga oladi va ilg'or pedagoglarni faoliyatini yuzaga chiqarish va keng ommaga ma'lum qilgan holda tatbiq etishga yo'l ochadi.

Innovatsiyani tatbiq etish faoliyatini boshqarishda muallifning bevosita ishtiroki shart emas. Bu yondashuv ijodkor o'qituvchining imkoniyatlarini kengaytirish, ularni aniq maqsadlarga yo'naltirishga xizmat qiladi. Natijada, pedagogik innovatsiyalarni yaratish va ularni ommalashtirishga qaratilgan sa'y-harakatlar bir nuqtaga jamlanadi va maqsadli natijaga erishish imkoniyati paydo bo'ladi.

Pedagogik innovatsiyalar o'ziga xos tavsiflarga ega bo'lib, kreativlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu innovatsiyalar quyidagi mezonlarga ko'ra baholanadi:

- 1) innovatsion usulning yangiligi;
- 2) optimal yechimlar taklif qilishi;
- 3) yuqori samaradorlikni ta'minlash imkoniyati;
- 4) ijodiy tarzda ommaviy tajribada qo'llanish imkoniyati.

Innovatsion usullar ilmiy tadqiqot natijalari va ilg'or pedagogik tajribalar bilan bog'liqligi sababli, ularning yangiligi eng asosiy o'lchov hisoblanadi. Shu bois, innovatsion jarayonlarda ishtirok etishni istagan o'qituvchilar uchun yangilikning mohiyatini tushunish nihoyatda muhimdir. Chunki bir o'qituvchi

uchun yangilik bo'lgan usul, boshqasi uchun allaqachon tanish bo'lishi mumkin. Shu sababli har bir pedagog va bo'lajak o'qituvchi o'z ehtiyojlari, tajribasi va

shaxsiy xususiyatlariga ko'ra bu jarayonga ixtiyoriy tarzda kirishishi kerak.

Innovatsion usullarning yangiligi quyidagi darajalarda namoyon bo'ladi:

- Absolyut daraja – ilgari hech kim tomonidan qo'llanilmagan, mutlaqo yangi g'oya;
- Lokal-absolyut daraja – faqat ma'lum muhitda yoki tizimda yangilik hisoblanadi;

- Shartli daraja – o'ziga xos shartlarga bog'liq holda yangilik sifatida qaraladi;

- Subyektiv daraja – (individual) o'qituvchi yoki talaba uchun yangilik bo'lishi mumkin.

Innovatsion usullarning samaradorligi, ularning optimal darajada bo'lishi bilan o'lchanadi. Bu esa o'qituvchi va o'quvchilarning kam vaqt va kuch bilan kafolatlangan natijalarga erishishini anglatadi. Har bir pedagog va o'quvchi o'z faoliyatida har xil darajadagi samaradorlikka erishishi mumkin. Shu sababli, innovatsion usullar imkon qadar yuqori natijani kam resurslar bilan ta'minlashini ko'zda tutadi.

Innovatsion usul samaradorligining belgisi uning natijasi bilan belgilanadi. Shu natija o'laroq o'qituvchi faoliyatida namoyon bo'lgan aniq yutuqlarning texnologikligi, kuzatuvchanligi, aniqligi va natijalarni qayd etish imkoniyati baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxsning tafakkuri va tushunchalarini shakllantirishdagi yaxlitlik mazkur o'lchovning asosiy jihatlaridan biridir.

Shunga qaramay, pedagogik amaliyotda yangi g'oya va texnologiyalar

ba'zida tor doirada qo'llaniladi. Bu holat, odatda, ta'lim muassasasining

texnik ta'minoti yoki o'qituvchining kasbiy xususiyatlari bilan bog'liq bo'ladi.

Shunday vaziyatlarda yangiliklar haqidagi bahslar samarasiz bo'lib qoladi.

O'qituvchining kasbiy mahoratini oshirishga xizmat qiluvchi asosiy jihatlardan biri – bilim almashinuvidir. Insoniyat taraqqiyoti bilimlarning avlodan-avlodga uzluksiz uzatilishi orqali amalga oshadi. Zamonaviy o'qituvchi insoniyat sivilizatsiyasi davomida to'plangan ma'lumotlarni qayta ishlashi va ularni talabalarga yetkazishi kerak. Ushbu ma'lumotlar bilimga aylanadi va talabalar kelajakda turli hayotiy vaziyatlarda muvaffaqiyatli bo'lishlariga yordam beradi. Shu sababli, o'qituvchining nafaqat o'z fanini bilishi, balki psixologiya, sotsiologiya, huquqshunoslik, tibbiyot kabi sohalarida ham bilimga ega bo'lishi kerak.

Bugungi kunda bilimni oshirishning ko'plab yo'llari mavjud: ilmiy nashrlar, internetdagi ochiq ma'lumotlar, kasbiy fanlar bo'yicha veb-saytlar, mahorat darslari, malaka oshirish kurslari va boshqalar. Bularning barchasi bilim almashinuvi mexanizmi orqali amalga oshiriladi. Shunga ko'ra, o'qituvchi o'quvchilarga tanqidiy fikrlashni o'rgatishi, ochiq ma'lumotlarga ongli munosabat bildira olishini ta'minlashi lozim. Bu esa, o'z navbatida, o'qituvchining yanada kengroq bilimga ega bo'lishini talab etadi.

F.Kornelissen, J.Svet, D.Beyjaard va T.Bergenlar maktab bilan oliy kasb-hunar ta'limi muassasalari o'rtasidagi hamkorlik muhimligini ta'kidlaydilar. Xususan, ular talabalar ilmiy izlanishlarini o'qituvchilarning amaliy faoliyatida qo'llashni tavsiya qiladilar [6,10–11-b]. Bir guruh rus olimlari - T.E. Andreeva, A.V.Sergeeva, A.A.Golubeva va Ya.Yu.Pavlov - ta'lim tashkilotlarida bilim almashish muammolarini o'rganib, uning intensivligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashdi [7,400-b]. Ularning fikricha, maktablarda bilim almashish jarayonida maqsadlar aniqligining yetishmasligi, hamda bilim olish va transformatsion yetakchilik faoliyatidagi noaniqliklar muammolar qatoriga kiradi. Shunday vaziyatda, o'qituvchilarning bilim almashishga bo'lgan motivatsiyasini rag'batlantiruvchi boshqaruv mexanizmlari taklif qilinadi.

O'qituvchilarning bilim almashinuvi bo'yicha quyidagi shakllar mavjud:

- Tajribali o'qituvchilar yosh mutaxassislariga murabbiylik qiladilar;
- O'rta yoshdagi o'qituvchilar konferensiyalar va onlayn hamjamiyatlarda ishtirok etadilar;

- Nutqiy qiyinchiliklarga ega bo'lgan o'qituvchilar uchun o'z bilimlarini yozma shaklda taqdim etish imkoniyati yaratiladi;

- O'zini namoyon qila oladigan o'qituvchilar uchun seminar, mahorat darslari va musobaqalarda ishtirok etish tavsiya etiladi;

- Malaka oshirish kurslarida o'qituvchining faol ishtiroki ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

- O'qituvchilar o'rtasida bilim almashinuvi uchun ijobiy psixologik muhit, moddiy va nomoddiy rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish muhim.

Xulosa. O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun asos bo'la oladigan omillardan asosiysi bilim almashishga tayyorligidir. Bilim almashish esa yangi yo'nalishdagi maktablarda ta'lim sifatini oshirishga professional o'qituvchilar hissa qo'shayotganligidan dalolatdir. Bunda

318 tayyorgarlikni yaxshilash uchun aniq bir maqsadni ko'zlagan tegishli sharoitlar bo'lishi shart. Ushbu sharoitlar umumiy ta'lim tashkilotining o'zida ham, o'qituvchilarning qo'shimcha kasbiy ta'limi tizimida ham amalga oshirilishini nazarda tutadi. Maktab rahbari uchun o'qituvchilar turli formatlarda bilim almashishga tayyor bo'ladigan motivatsion muhitni yaratish zarurati yuzaga kealdi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, bunday muhit moddiy va nomoddiy omillarning birligini o'z ichiga oladi: qulay psixologik iqlim va turli moddiy rag'batlantirishning mavjudligi ham muhim omil hisoblanadi.

Rahbarlar ushbu imkoniyatlarni yaratishi, o'qituvchilarning bilim almashuviga tayyorligini rag'batlantirishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gadjinskiy A. M. Logistika: darslik. 14-nashr.- M.: Nashriyot va savdo uyi. "Dashkov va K" korporatsiyasi, 2007. 472 b.
2. Golikov E. A. Marketing va logistika: darslik. 4-nashr.- M.: akad., 2006. 448 b.
3. Nerush Yu. M. Logistika: darslik. universitetlar uchun. 4-nashr.- M.: TK Velby; Prospekt, 2006.
4. Носов А. Л. Проблемы информатизации системы образования в постиндустриальном обществе // Научно методический электронный журнал «Концепт». – 2015. – № 01. – С. 1–5.
5. Носов А. Л. Инновационные аспекты системы образования // Инновационное развитие экономики. – 2016. – № 5(35). – С. 287–290. 25. Педагогическая логистика // Полисветие: сб. – Кохтла-Ярве, 2007. – № 1. – С. 72–79.
6. Матиева М.Н., Яйчев Н. У. Сущность и особенности осуществления обмена знаниями в общеобразовательной организации. 2016/, ў. 10–11, С. 176-180.
7. Гапоненко А.Л., Орлова Т.М. Как превратить знания в капитал, 2008. 400 С
8. www.pedagog.uz